

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

F.Xalikov	
Ta'lim tizimida testologiyadan foydalanishning nazariy asoslarini takomillashtirishning pedagogik ahamiyati	211
A.A.Mirzayev	
Ibn al-Arabiyning tasavvufiy qarashlarining asosiy yo'nalishlari va yondashuvlari	217
S.A.Azamova	
Yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirishda ekologik tarbiyaning samarali yo'llari va bosqichlari	223
M.I.Yusupova	
Expression of the concept of "Patriotism" in the russian-language media.....	231
M.M.Aralov	
OTM talabalarining grafik tayyorgarlikligini rivojlantirish vositasi sifatida	235
U.Abdullayeva	
Bo'lajak kimyo o'qituvchilarining metodik kompetentligini takomillashtirishda ekologik ta'lim va tarbiyaning ahamiyati hamda ularning qiyosiy tahlili	124
Y.J.Mirzaaxmedova	
Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarida o'zbek musiqasi tarixiga doir bilimlarni rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari	241
J.X.Boysunov	
Yoshlarda ma'naviy madaniyatini yuksaltirishning falsafiy mohiyati.....	246
B.I.Beshimov	
Jinoyatchilik ijtimoiy hodisa va uning tahlili	250
Z.N.Usmonov, M.A.Mirzajonova	
Umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarining jismoniy madaniyat fani nazariy bilim asoslarini o'qitishni monitoringi	255
M.X.Raxmonova, M.O.Karimova	
Boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy potensialini pivojlantirishning dolzarbligi va mohiyati....	260
N.S.G'afurova	
Ijtimoiy tarmoqlar punktuatsiyasining pragmatikasi.....	261
G.M.Камалова	
Методология преподавания физической культуры в вузах на современном этапе.....	266
R.M.Ubaydullayev	
Qishloq qizlari jismoniy tayyorgarligini tabaqalashtirilgan metodika orqali baholash	270
A.K.Nafasov	
Tarixda sivilizatsiyalarning shakllanishi tarixi xususida	274
F.A.Ikramov	
Mustaqil ta'lim faoliyati asosida talabalarning huquqiy ta'limini tashkil etishning pedagogik omillari.....	277
D.T.Tursunova	
Talaba xotin-qizlar ijtimoiy faolligini rivojlantirishning mazmuni va psixologik asoslari	281
D.D.Boymirzaeva	
O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalarida tashkiliy faoliyat va boshqaruv amaliyotining mavjud muammolari tahlili	286
I.I.Soliyev	
Yangi O'zbekistonda OTMLar boshqaruviga xalqaro standartlarni joriy qilish vazifalari.....	292
S.S.Qozaqova	
Hikoya tuzishga o'rgatish maktabgacha yoshdagi bolalarning bog'lanishli nutqini rivojlantirishning muhim vositasi sifatida	298
F.A.Askarov	
Jismoniy tarbiya darsi jarayonida interfaol usullar ta'lim samaradorligini asosiy bo'g'ini sifatida ..	304
D.Z.Isaboyeva	
Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarida zamonaviy ko'nikmalarni shakllantirishning pedagogik psixologik asoslari (xalqaro baholash dasturi)	308
M.I.Ne'matov	
O'quvchilarning jismoniy madaniyatini rivojlantirishning etno-pedagogik asoslarini takomillashtirish	311

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTAB O'QUVCHILARINING JISMONIY MADANIYAT FANI NAZARIY BILIM ASOSLARINI O'QITISHNI MONITORINGI**МОНИТОРИНГ ПРЕПОДАВАНИЯ ТЕОРЕТИЧЕСКИХ ЗНАНИЙ ПО ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЕ УЧАЩИХСЯ ОБЩИХ СРЕДНИХ ШКОЛЬНИКОВ****MONITORING OF TEACHING THEORETICAL KNOWLEDGE IN PHYSICAL EDUCATION TO GENERAL SECONDARY SCHOOL STUDENTS****Usmonov Zoxidjon Normatovich¹**¹Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti kafedrasida p.f.b.f.d (PhD)**Mirzajonova Mahliyobonu Abdubannob qizi²**²Farg'ona davlat universiteti, Jismoniy madaniyat fakulteti talabasi**Annotatsiya**

Maktab jismoniy madaniyat fani dasturidagi "nazariy bilim asoslari" o'quv materialini alohida nazariy dars sifatida tashkillash va o'tkazish orqali fanning nazariy bilimlarini berish va uni samaradorligini oshirish tajriba sinov bo'yicha tadqiqotlarning yakuniy natijalari umumlashtirilgan.

Аннотация

Обобщены итоговые результаты экспериментальных исследований по приобщению теоретических знаний к науке и повышению ее эффективности путем организации и проведения учебного материала «Основы теоретических знаний» в школьной программе по физической культуре как отдельного теоретического занятия.

Abstract

The final results of experimental studies on introducing theoretical knowledge to science and increasing its effectiveness by organizing and conducting the educational material "Fundamentals of Theoretical Knowledge" in the school physical education curriculum as a separate theoretical lesson are summarized.

Kalit so'zlar: Jismoniy bilim, sog'lomlashtirish, sog'lomlashtiruvchi texnologiyalar, harakat faolligi, jismoniy rivojlanganlik, jismoniy tayyorgarlik, jismoniy mashq, harakat sifati

Ключевые слова: Физического знание, Оздоровление, Оздоровительные технологии, дивигательная активность, физическое развитие, физическое подготовленность, физическое упражнение

Key words: Physical knowledge, wellness, wellness technologies, movement activity, physical development, physical training, physical exercise, quality of movement

KIRISH

Jismoniy madaniyat fani ta'lim jarayonining barcha etaplarida fan dasturidagi "Nazariy bilim asoslari"ni o'quv materialini o'quvchi yoshlarga o'qitish jismoniy madaniyat ta'limining muhim elementlaridan biri hisoblanadi. Maxsus adabiyotlar, olib borilgan pedagogik kuzatishlarimizning tahlili umumta'lim maktabi o'quv rejasidagi amaliy fanlardan biri hisoblangan jismoniy madaniyat o'quv predmetining "nazariy bilim asoslariga" oid mavzularning bilimlarga bo'lgan ehtiyojni qondira olmayotganligiga guvoh bo'ldik. Sotsiologik tadqiqotlarda ishtirok etgan Farg'ona shahridagi 1 va 3 maktablarning yuqori sinf o'quvlarini sotsiologik tadqiqotlarimizda ishtirok etgan ota-onalardan 70 nafari "...farzandlarimiz uyga vazifa tayyorlayotganda qator umumta'lim fanlaridan biz ularga yordam beramiz, lekin jismoniy madaniyat darsining qator nazariy savollariga javob berishda qiynalamiz deb fikr bildirganlar 63.2% ni tashkil etdi. Shuning uchun 1 sinfdan 11 sinfgacha uzluksiz o'qitiladigan jismoniy madaniyat fanining "nazariy bilim asoslari"ni chuqurroq o'qitish muammosi dolzarb masalalardan biridir.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2018-yil 5-martdagi "Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF-5368 farmonining 2 bandida "Jismonan sog'lom o'sib kelayotgan avlodni tarbiyalash" ta'lim muassasalari jismoniy tarbiya va sport jamiyatlari, jamoat tashkilotlari bilan birgalikda aholi, ayniqsa yoshlar o'rtasida jismoniy tarbiya sport bilan shug'ullanishni ommalashtirishga keng ko'lamlil ta'limiy ishlarni tashkillashtirishni Vazirlikni asosiy vazifalaridan biri deb e'lon qildi. Prezidentimiz 5 tashabbusning ikkinchisida ham "Yoshlarni jismoniy chiniqtirish, sport bilan shug'ullanishlari uchun zarur sharoitlar yaratish"ni ta'kidladi. O'z navbatida qayd qilinganlar

bo'lajak jismoniy madaniyat sohibida sohaga oid maxsus nazariy bilimlarga ega bo'lishini asosli ravishda taqozo etmoqda.

Bugungi kunga kelib mamlakatimiz ta'lim tizimida o'qitish nazariyasi barcha fanlar misolida isloh qilinmoqda. Shaxs va jamiyatning ehtiyojlariga javob beradigan darajada sifatli va saviyali bilimlar muhim bo'lib qolmoqda. Jismoniy madaniyat ta'limi jarayoni ham bundan istisno emas. Inson jismi madaniyatiga oid ma'lumotga ega bo'lishni ahamiyati muhim.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Maxsus adabiyotlarning tahlili va soha mutaxassisleri G.G.Natalov, L.P.Matveev, Sh.X.Xankeldiev, A.Abdullayevlarning ta'kidlashicha, sohaga oid bilimlarning sifati va saviyasi jismoniy madaniyat ta'limining mazmuni, uni tashkil etilishi, o'quvchilarning "jismoniy qobiliyati" harakat faoliyatini o'rganishga moyilligi darajasi bilan hamda o'quvchining o'ziga xos ruhiy xususiyatlari, harakat faoliyatini bajarishida ko'zga tashlanadigan organizmining funksional holati sifatida namoyon bo'lishi bilan bog'liqligi jismoniy madaniyat ta'limi amaliyotida ko'zga yaqqol tashlanib qolmoqda. Shunga ko'ra jismoniy madaniyatni nazariy bilimlari asoslarini o'qitish jismoniy madaniyatini shakllantiruvchi fan sifatida o'ta muhim bashariyat ahli madaniyatining bir qismi tarzida inson jismining barcha a'zolarini, avvalo tabiiy rivojlanishi ko'rsatkichlarini (bo'yi-basti, vazni va x.q), keyinchalik uning hosilasi-jismoniy tayyorgarligi darajasini (kuchi, tezligi, chidamliligi va h.k), umri davomida yoshi har biri uchun munosib darajada ushlay olishiga mansub bo'lgan nazariy bilimlar va amaliy malakalarining me'yoriga oid nazariy bilimlarga ega bo'lish zarurligini 100 dan ortiq Farg'ona shahri, Quva, Quvasoy tumanlarining katta maktab yoshidagi o'quvchilari hamda 10-15 yil muqaddam maktabni bitirgan sobiq o'quvchilarining fan dasturidagi "nazariy bilimlar asoslari" mavzulariga oid fikrlarini suhbatlar va sotsiologik so'rovlar orqali o'rgandik.

Anketalarimizda o'ta oddiy savollar: "Jismoniy madaniyat fanidan maktabda egallagan bilimlaringizni hozir necha bahoga baholaysiz?" (16% "5" bahoga; 27% "4" bahoga; 57% "3" bahoga); "Jismoniy mashqni bajarishda organizmda sodir bo'ladigan o'zgarishlar" savoliga respondentlarning faqat 21% to'g'ri javob berdilar: "Chaqqonlik harakat sifati qanday mashqlar bilan rivojlantiriladi" degan savolga so'rovda ishtirok etganlar 37.3% to'g'ri javob berdilar; "Chidamlilik deb nimaga aytiladi" savoliga 26% ishtirokchi to'g'ri javob berdi. Yuqori sinf "jismoniy madaniyat darsida qanday mavzuni o'tdilaring" degan savolga o'quvchilaridan olgan o'ta oddiy javoblar futbol o'ynadik, 100 metrga yugurdik, uzunlikka sakradik, va x.k degan mashqlarni hayotiy amaliy ahamiyati, organizmda yuzaga keltiradigan o'zgarishlar haqidagi sof jismoniy bilimlar haqida kerakli biz kutgan nazariy fikrlar bayon qilingan javoblarni olmadik.

Xalq ta'limi tizimining o'quv muassasalarida ta'limiy jarayonning amaliy qismi bilan bir qatorda DTSlarda qayd qilingan jismoniy madaniyatning nazariy qismini o'zlashtirish umumiy ta'lim maktabi bitiruvchilarini maktab jismoniy madaniyat fani dasturidagi nazariy bilim asoslarini yetarli darajada bilmaslik omili jismoniy tarbiyadan ixtisoslashtirilgan Oliy gumanitar ta'lim muassasalariga o'qishga kirishdagi amaliy testlarini topshirishda, sog'lom turmush tarzi jismoniy madaniyati mashg'ulotlarida, jismoniy mashqlar bilan mustaqil shug'ullanish jarayonlarida ham ko'zga yaqqol tashlanib qolmoqda.

Tadqiqotlarimiz davomida maxsus adabiyotlar va o'quv muassasalarining jismoniy madaniyat ta'lim dasturlarining nazariy bilim asoslari o'quv materiallarning tahlili biz kutgan natijani bermadi. Chunki aksariyat mavzular, Masalan "Ichish, chekishning zararli oqibatlarini" mavzusi 5 sinfdan boshlanib 11 sinfgacha takrorlanadi. Qayd qilingan mavzuni o'quvchi ketma-ket qator yillar takroriy o'qigandan so'ng mavzuga nisbatan munosabat o'zgaradi. Nisbatan befarqlik yuzaga keladi. Bu o'quvchi va o'qituvchining qimmatli vaqti besamar sarflandi degani.

Yuqoridagilardan kelib chiqib 2022-2023-o'quv yili uchun qabulda ishtirok etadigan bo'lajak abituriyentlar- katta maktab yoshidagilarning jismoniy madaniyat fanidan nazariy bilimlarini aniqlash zaruriyati yuzaga keldi. Shu bilan bog'liq Farg'ona viloyati Quva tumanining 15-umumiy o'rta ta'lim maktabida pedagogik tajriba o'tkazdik.

Tajribada 60 nafar yuqori sinf o'quvchilari ikki guruhga tajriba va nazorat guruhlariga ajratildi. Nazorat guruhi bitta, tajriba guruhi ikkita qilib guruhlandi. Har bir guruhga 20 nafardan o'quvchi birlashtirildi. Bu maktab yoshidagilarni tajriba guruhlarini uchun tanlash bejiz bo'lmay aynan shu yoshdagilar nazariy bilimlar asoslariga nisbatan ko'proq ehtiyoj sezishlarini hisobga oldik.

Yuqori sinf o'quvchilarida o'tkazilgan pedagogik tajriba jarayonida biz tomonimizdan o'quv jarayoning yillik siklini har bir choragida bir soatdan jami 4 o'quv soatiga yil davomida mo'ljallab teng taqsimlangan nazariy darslarning o'quv dasturidagi mavzularni tavsiya qildik.

Nazorat sinflarida jismoniy madaniyat darslari amaldagi fan dasturining “nazariy bilim asoslari” materialini an’anaviy tarzda, ya’ni, har bir jismoniy mashqni o’rgatish (o’qitish)dan avval, shu mashqga oid nazariy bilimlar berish tarzida o’qitildi. Eksperimental guruhlarda esa jismoniy madaniyat darslarining nazariy ma’lumotlarini berish biz tavsiya qilgan dastur mavzulari asosida olib borildi.

Birinchi eksperimental guruhda nazariy bilim asoslarini o’qitish uchun bitta jismoniy madaniyat darsini bag’ishladik. O’tkazilgan sotsiologik tadqiqotlarimiz natijalariga tayanib nazariy mashg’ulotlarni o’tkazish uchun to’liq bitta darsni bag’ishladik va har bir jismoniy madaniyat darsining boshlanishida mavzu bo’yicha nazariy bilim berish usulini qo’llashdan voz kechdik.

Chunki, eski an’anaviy usullar bilan nazariy bilimlarni o’qitish darslari o’qituvchini har doim ham amaliy darsni boshlashdan oldin beradigan nazariy bilimlarni o’quvchi tomonidan o’zlashtirishini samaradorligi yuqori bo’lmashligini tajribalarimiz orqali aniqladik. Mashg’ulotlarning uzluksizligi, mashqlar, harakatlar ketma-ketligi va boshqa o’quv-metodik prinsiplardan foydalanishdagi yaxlitlikni buzilishiga sabab bo’lishini kuzatdik.

Ikkinchi eksperimental guruhda nazariy bilim asoslarini o’qitishda uyga vazifalarni amaliy bajarishdek an’anaviy usulga qo’shimcha nazariy vazifa bajarishni tavsiya qildik. O’quvchi jismoniy mashq mazmuni, zvenosi, mashqi texnikasi, uning zvenolari, detallarini harakatni bajarishdan organizmda kechadigan anatomik-fiziologik jarayonlar, mashqlarni organizmga ta’siri, yurak-tomir, nafas, modda almashuvi, asab tizimi, mushaklar uchun zaruriy tonusni yaratish va boshqalar haqida nazariy fikrlar yozishga majburladik. Bu uyga vazifani amaliy bajarishdek an’anaviy usuldan o’zini samaradorligi bilan farqlanib, o’quvchini fikrlashga, mashqni mazmuni, tuzilishi, nazariy va amaliy ijrosi haqida fikrlar bayon qilishga o’rgatdik.

Ularning nazariy bilim asoslariga tayyorgarligiga oid bilimlarni nazorat (an’anaviy nazariy bilim berilgan guruh bilan) darajasini baholash jismoniy madaniyat fani DTS nazarda tutgan dastur materiallari asosida maxsus qiyosiy tahlilini qilib anketa savollari orqali testlash bilan baholadik.

Testlash bitiruvchi sinf o’quvchilarida ikki etapda amalga oshirildi, dastlabki nazariy ma’lumotlar sentyabr oyining birinchi yarmida ikkinchisi esa 2022-yilning mart oylari o’rtasida o’tkazildi. Natijalarni matematik statistika metodi orqali hisoblash uchun tuzilgan ekspert komissiyasi o’quvchilarni jismoniy bilim asoslarini standartlari bo’yicha baholadi.

Sotsiologik anketa so’rovlarning natijalarini dastlabki va yakuniy natijalari 1-jadvalda e’tiboringizga havola qildik.

1-jadval

Guruhlar	Jismoniy madaniyat darsining nazariy vazifalari va uning bo’limlari (n=60)				Ballar yig’indisi $x \pm \sigma$	R
	Jismoniy madaniyat ning nazariy asoslari bo’yicha	Ruhiiy pedagogik asoslari bo’yicha	Tibbiy biologik asoslari bo’yicha	Jismoniy madaniyat va sport bo’yicha majburiy faoliyatlari		
Nazorat guruhi	2,2	2,65	2,55	2,5	10,1±0,3	>0,01
	1,8	1,7	2,15	2,2	12,1±0,4	
1-eksperimental guruh	2,2	2,3	2,6	2,4	10,5±0,4	<0,01
	0,4	1,0	0,9	0,8	16,7±0,5	
1-eksperimental guruh	2,4	2,4	2,5	2,1	10,2±0,4	<0,01
	1,1	1,4	1,4	1,2	14,9±0,3	

Qayd qilingan so’rov yuqori sinf o’quvchilarini jismoniy qobiliyatlarini namoyon qilishdagi oshirilgan nazariy bilimlarni hajmi, ta’sirini, ishonchliligini aniqlash maqsadida qo’llanilgan innovatsion metodlarni o’zaro bog’liqligini aniqlashni maqsad qilib yuqori sinf o’quvchilar orasida o’tkazdik.

Ikkinchi jadvalda ikkita eksperimental va bitta nazorat guruhlaridagi yuqori sinf o’quvchilarining harakat qobiliyatlarining testlashni tajribaning boshlanishi va uni tugallanganligidan

so'ngi natijalarini e'tiboringizga havola qildik. Dasturdagi tezlik sifatini aniqlash maqsadida pedagogik eksperimentda 30 metrli masofada yugurish mashqidan foydalandikl.

2-jadval

Guruhlar		Nazorat topshiriqlari (n=60)							
		30 metr yugurish		Mokkisim on 3x10 metrga yugurish		Kross		Turnikda tortinish	
		x	σ	x	σ	x	σ	x	σ
Nazorat	Tajriba boshida	5,4	0,2	9,4	0,1	1039,4	98,9	3,5	1,5
	Tajriba oxirida	5,3	0,1	8,8	0,2	1167,0	108,2	7,7	1,8
1-tajriba guruh	Tajriba boshida	5,4	0,2	9,4	0,2	1070,9	103,2	3,9	1,7
	Tajriba oxirida	5,2	0,3	8,5	0,3	1193,1	82,3	7,3	1,7
1-tajriba guruh	Tajriba boshida	5,4	0,2	9,3	0,1	1098,2	94,6	3,8	1,4
	Tajriba oxirida	4,9	0,3	8,7	0,2	1194,1	91,01	7,1	4,5

Ikkinchi eksperimental guruhda nazariy bilimlar har chorakda bittadan dars tarzida o'tkazildi. Uyg beriladigan vazifalarni amaliy bajarish bilan nazariy topshiriqni har bir o'quv choragida nazariy bilim asoslarini uyga vazifa qilib bajaradigan ikkinchi eksperimental guruhdagilarga nisbatan jismoniy qobiliyatlarni namoyon qilishlarini o'rtacha o'sganligi darajasi 8,7 % dan 87,7% atrofida bo'ldi. Jismoniy madaniyatning dasturdagi bilimlarini o'rganish har bir o'quv chorakda bitta nazariy dars o'tkazilishi rejalashtirilgan birinchi eksperimental guruhlarda harakat qobiliyatini o'sishi 4.2% dan 86.4% atrofida bo'ldi. Olingan natijalarni tahlili shuni ko'rsatdiki testlashdan oldingi bolalarning o'rtacha ko'rsatkichlar uchala guruhda ham ishonchli emas, lekin yakuniy testlashda birinchi eksperimental guruh o'sishi 5.7%, ikkinchi eksperimental guruh o'sishi 4.5%, nazorat guruhida esa 3.9% ni tashkil etdi.

XULOSA

Olib borilgan tadqiqotlarimiz asosida shunday xulosaga keldikki, nazariy o'quv materialini biz tavsiya qilgan metodika orqali uy sharoitida o'zlashtirish nazorat guruhlaridagi an'anaviy metodika orqali nazariy bilimlarni berish bilan o'qitiladigan guruhlariga nisbatan o'quvchining bilimdonligi darajasi sezilarli darajada ijobiy tomonga o'zgardi. Demak uy sharoitida fan dasturidagi nazariy bilim asoslarini o'zlashtirish an'anaviy usulda o'qitiladigan nazorat guruhi o'quvchilariga qaraganda nazariy tayyorgarligini yaxshilanganligini ko'rsatdi.

O'tkazilgan tadqiqotlarimiz qo'yidagilarni aniqlash imkonini berdi.

1. Umumiy ta'lim maktablarining jismoniy madaniyat darslarini olib borish amaliyotida fan dasturida tavsiya qilingan nazariy o'quv materiallarini o'qitishga hozirgi kunda yetarli darajada e'tibor yo'q. Qolaversa fan dasturi tavsiya qilgan nazariy bilim asoslarining o'quv materiali hozirgi kun o'quvchisining jismoniy madaniyatini nazariy bilimlari talablari darajasida emas.

2. O'tkazilgan pedagogik eksperimentlar davomidagi erishilgan natijalarning qiyosiy tahlili, jismoniy madaniyat darsining nazariy asoslarini alohida nazariy dars sifatida o'qitish bitiruvchi sinf o'quvchilarini nazariy tayyorgarligi darajasini oshishiga ijobiy ta'sir qilishini ko'rsatdi.

3. Katta maktab yoshidagi o'quvchilarning jismoniy rivojlanganligi, jismoniy tayyorgarligi va ularning hayotiy zaruriy harakat malakalari zaxirasini boyitishga oid nazariy bilimlar ularni umri davomida sog'lom, kasalliklarsiz yashash, tabiiy biologik qarishi uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni [PF-5847 08.10.2019](#). Manba: [www.gov.uz](#) (Decree of the

President of the Republic of Uzbekistan "On approval of the concept of development of the higher education system of the Republic of Uzbekistan until 2030" PF-5847 08.10.2019. Source: www.gov.uz)

2. Ханкельдиев Ш.Х. Физический статус учащейся молодежи. Монография. –Ташкент: 2018, -С. 432. (Khankeldiev Sh.Kh. Physical status of student youth. Monograph. -Tashkent: 2018, -S. 432)

3. Бондаревский Е.Я., Ханкельдиев Ш.Х. Физическая подготовленность учащейся молодежи. Ташкент. Медицина 1986 – 204 с.(Bondarevsky E.Ya., Khankeldiev Sh.Kh. Physical fitness of students. Tashkent. Medicine 1986 - 204 p.)

4. Usmanov, Z. N., Ubaydullaev, R. M. Problems of physical cultural and ozdorovitelnoy raboty in the system of school education.